



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

## TIL VA ONG: KOGNITIV TILSHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN TAHLIL

*Ilmiy rahbar: Karimova Nilufar*

**Hoshimova Sevinch**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi  
[Sevinch081@gmail.com](mailto:Sevinch081@gmail.com)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179311>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslikning nazariy asoslari va uning tilshunoslikdagi o'rni tahlil qilinadi. Kognitiv yondashuv tilni inson tafakkuri va idroki bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Maqolada til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, til birliklarining ma'no hosil qilish jarayonidagi roli hamda kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalari yoritiladi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslikning amaliy jihatlari, jumladan, nutq jarayoni, metaforalar, kontseptlar va til modellari bo'yicha ilmiy qarashlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari til va ong o'rtasidagi aloqalarni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan til va ong o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun nazariy tahlil usuli qo'llanildi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv tilshunoslik, til va tafakkur, kontsept, metafora, nutq jarayoni, til modellari.

**Kirish.** Sotsiolingvistika yoki ijtimoiy tilshunoslik bilan uzviy bog'langan tilshunoslik fanining yana bir yo'nalishi – kognitiv tilshunoslikdir. Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha “**cognitive – bilishga oid**” so'zi bilan bog'liq. Barchamizga ma'lumki, dunyoni, voqealikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarda ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (lotincha), ya'ni «aql, tafakkur» hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitatorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Shuni unutmaslik lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir.

Til va tafakkur munosabati muammosining uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan muhokamasi turli metodologik xulosa va tavsiyalarni yuzaga keltirdi. Tashqi dunyoning ongdagi in'ikosi paydo bo'lishida til asosiy rol o'ynashiga alohida urg'u bergan olimlar (Sepir, Hoyjer, Hokket, Budagov, Panfilov va boshqalar)



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

ta'kidlashicha, lisoniy struktura (qurilma) insonning voqelikni idrok etish qobiliyati va tajribasining shakllanishini ta'minlab, ijtimoiy ongga ta'sir o'tkazadi hamda shu yo'sinda insonning dunyoqarashi, voqelikni anglash qobiliyatini shakllantiradi. Tafakkur qanchalik darajada lison bilan bog'liq hodisa bo'lmasin, uning faqatgina til vositasida amalga oshishi yoki, boshqacha aytganda, tilsiz tafakkur bo'lmasligi haqidagi xulosa unchalik haqiqatga yaqin emas. Til va tafakkur aynan bir narsa bo'lmasa kerak. Tafakkur predmet, hodisalarning aloqa va munosabatlari haqida ma'lumot beruvchi voqelikning umumlashgan holdagi in'ikosidir.

Voqelikning miyada aks etishi faqatgina nutqiy tafakkur harakati natijasida yuzaga kelmasligini isbotlash maqsadida B.A. Serebrennikov (1983: 104-110) tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlarini farqlashni taklif etganligini eslaymiz. Bular quyidagilar:

a) aniq tafakkur – aniq, konkret muhitda yuzaga keladigan voqelikning umumlashtirilgan obrazi (aksi);

b) ramziy tafakkur – xotirada mavjud bo'lgan butun bir voqelik yoki predmet-hodisalarni alohida bir muhitsharoitga bog'liq bo'lgan holda qayta eslash;

v) amaliy tafakkur – bevosita maqsadli harakatlar bajarilishi bilan bog'liq fikr;

g) lingvokreativ yoki lisonni shakllantiruvchi tafakkur, ya'ni bu turdagi tafakkur harakatlari bevosita til tizimi zahiralari bilan bog'liq;

d) nolisoniy tushuncha tafakkuri - (bu turdagi tafakkurning alohida ajratilishi, voqelik haqidagi tushunchaning paydo bo'lishi nutqiy harakatdan oldingi bosqichga oidligi bilan bog'liqdir).

Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik sohalari uchun ham umumiy bo'lgan asosiy kategoriyalardan biri, muhim o'rganish obyekti- bu **konsept**dir. Bu atamani ilk bor 1928-yilda rus tilshunosi Askoldov o'z maqolasida qo'llagan. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir”, deb izoh bergan. Kontsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Kontseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va psixolog Jerri Fodor voqelikning ongda in'ikos etishi va bu in'ikosning tafakkurda «qayta ishlanish» jarayonini o'rganayotib, bu jarayonni «tafakkur lisoni»ga o'xshatadi. Chunki «har qanday mantiqiy tasavvur harakati ma'lum ko'rinishdagi strukturaga ega bo'ladi hamda bu struktura tabiiy til birligining sintaktik shakli takroriga ishoradir»

Kognitiv metafora – inson tafakkuri va idrokini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan metafora turi bo'lib, u til va ong o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Ushbu tushuncha Jorj Leykoff (George Lakoff) va Mark Jonson (Mark Johnson) tomonidan ishlab chiqilgan "Metaphors We Live By" (1980) kitobida keng yoritilgan.

Kognitiv metafora bizning dunyoni tushunishimiz va uni ifodalashimizda asosiy vosita hisoblanadi. U real voqelikni tushunish uchun boshqa bir tushuncha yoki tajribadan foydalanish orqali shakllanadi. Misollar:

Vaqt – bu pul: "Men u bilan vaqtimni behuda sarfladim."

Hayot – bu sayohat: "Hayot yo'lida to'siqlarga duch kelamiz."

Bunday metaforalar faqat badiiy adabiyotda emas, balki kundalik muloqot, ilmfan, falsafa va texnologiyada ham keng qo'llaniladi. Kognitiv tilshunoslikda ular inson ongining qanday ishlashini tushunish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Kognitiv freym nazariyasi Charlz Fillmor (1976, 1982) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u inson tafakkuri va nutq jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, odamlar so'zlarni yoki iboralarni mustaqil ravishda emas, balki oldingi bilim va tajribalari asosida tushunishadi. Fillmorning ta'kidlashicha: "Har bir so'z yoki tushuncha ma'lum bir bilim tizimi (freym) orqali anglashiladi"

Freymlar inson nutq jarayonini qanday tushunishi va qayta ishlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Quyida freymning nutq jarayonida qanday ishlashiga misollar keltirilgan:

"Universitet" degan so'zni eshitgan odam odatda darslar, talabalar, o'qituvchilar, imtihonlar haqida o'ylaydi. Bu tushuncha oldingi bilimlar (freymlar) orqali shakllanadi. Binobarin, PLANE «samolyot» freymi, «uchuvchi», «xavfsizlik kamari», «styuardessa», «o'rindiq» kabi qator kategoriyalar to'plamidan iborat. Bundan tashqari, samolyotda uchish muhiti bilan bog'liq yana qator subfreymlar («Ovqatlanish», «Kino tomoshasi», «Hojatga borish» kabi) voqea tafsilotini to'ldiradi. Haqiqatdan ham kundalik turmush voqealari murakkab kechadi va shu sababli bizning voqelik haqidagi bilimimiz ham murakkab freym tizimida shakllanadi.

An'anaviy til o'rgatish metodikalari sintaktik va grammatik qoidalarga asoslangan bo'lsa, kognitiv tilshunoslik bu jarayonni idrok, tafakkur va madaniy kontekst bilan bog'lab tushuntiradi.

Konseptual metaforalar orqali o'quvchilar yangi so'zlarni tezroq o'zlashtiradi.

Freymlar va ssenariylar yordamida o'quvchilar tilni mantiqiy tizim sifatida idrok etadi.

Til va tafakkur bog'liqligi madaniy va lingvistik tafovutlarni tushunishga yordam beradi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Misol uchun, "vaqt – pul" metaforasi ingliz tilida keng tarqalgan (spending time, saving time), lekin boshqa tillarda bu tushuncha boshqacha bo'lishi mumkin. Shuning uchun til o'rganuvchilarga kognitiv model asosida yangi tushunchalarni kiritish samarali bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Kognitiv tilshunoslik – bu tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri va idrokining ajralmas qismi sifatida o'rganadigan yondashuvdir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlik insonning dunyoni anglash, tushunish va talqin qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, til birliklari faqatgina ma'no ifodalovchi vositalar emas, balki inson ongi va idroki bilan bog'liq murakkab tizimning tarkibiy qismidir. Kognitiv metaforalar va kontseptlar esa inson tafakkurining tuzilishi, dunyoqarashi va madaniy xususiyatlarini ochib beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslik til va tafakkurning o'zaro bog'liqligini tadqiq etishda samarali yondashuv bo'lib, uning natijalari tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohalari uchun ham katta ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Fillmore Ch.J. The case for case reopened // Grammatical relations
2. Darnell R., Edward Sapir: Linguist, antropologist, humanist. –Berkley, Los Angeles; London: University of California Press
3. "Tilshunoslikka kirish" M.Irisqulov
4. "Kognitiv tilshunoslik" Shaxriyor Safarov
5. "Metaphors We Live By" is a book by George Lakoff and Mark Johnson
6. Скребцова, Т. Г. Когнитивная лингвистика: Курс лекций.
7. N.Z.Shayxislamov Kognitiv tilshunoslik to'g'risida tushuncha va uning universal tabiati